Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 18-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 24-sentabr 2026-yil

MAQSUD SHAYXZODANING HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI

Yarasheva Xosiyatbonu Oybek qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” rus tili guruhi
3-bosqich talabasi



Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda yashab ijod qilgan serqirra qalam sohibi bo‘lgan Maqsud Shayxozdaning hayoti tasvirlangan. Shayxzodaning eriahgan unvonlari va u yozib qoldirgan asarlari nimani targ‘ib qilganligi hamda biz kelajak avlodning hayotida bu asarlar qanchalik ahamiyatga ega ekanligi keng yoritilib berilgan. Maqsud Shayxzodaning hayotini o‘rganish, ilmiy merosdan o‘rganilishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi,Naim Karimovning ilmiy asari,milliy meros, badiiy, adabiy, dramaturg, shoir, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog, publisistik, poeziya, doston, ertak-doston, tarixiy fojia, tragediya, tarixiy drama.

Аннотация. В данной статье описывается жизнь Максуда Шайхозды, жившего и творившего в нашей стране. Было широко объяснено, чему способствовали эрахганские титулы и его письменные произведения Шейхзаде, и насколько важны эти произведения в жизни нашего будущего поколения. Описано изучение жизни Максуда Шейхзаде и изучение его научного наследия.

Ключевые слова: жизнь и деятельность Максуда Шайхзоды, научная деятельность Наима Каримова, национальное наследие, художественный, литературный, драматург, поэт, литературный критик, переводчик, педагог, публицист, поэзия, эпос, сказка-эпопея, историческая трагедия, трагедия, историческая драма.

Abstract. This article describes the life of Maqsud Shaikhozda, who lived and created in our country. It has been widely explained what Sheikhzada's eriahgan titles and his written works promoted, and how important these works are in the lives of our future generation. The study of the life of Maqsud Sheikhzadeh and the study of his scientific heritage are described.

Keywords: life and work of Maqsud Shaykhzoda, scientific work of Naim Karimov, national heritage, artistic, literary, dramatist, poet, literary critic, translator, pedagogue, publicist, poetry, epic, fairy tale-epic, historical tragedy, tragedy, historical drama .

Ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Otasi Ma’sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor edi.

Dastlabki she’riy to‘plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O‘n she’r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O‘n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo‘shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo‘shiq“, „Ko‘ngil deydiki“ (1943), „O‘n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she’rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo‘llar“ (1961), „She’rlar“ (1964) va boshqa she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50 yillardagi ayrim she’rlarida ozarbayjon she’riyatiga xos ohanglar, minbar she’riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she’rlarida o‘zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo‘lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e’tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo‘l urib, „O‘rtoq mulk“ (1933), „Chirog‘“, „O‘rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O‘n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40-yillardagi she’riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan

biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o‘tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o‘z she’rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so‘zning she’riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko‘rgan.

Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921-yili Boku dorilmuallikka o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926-yili Adhem Fayziy tashkilotiga a’zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a’zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q.



Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi.

1929-yili yosh shoirning o‘zbek tilidagi dastlabki she’ri “Sharq haqiqati” gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Shayxzodaning birinchi to‘plami “O‘n she’r”, keyinroq “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) kabi to‘plamlari nashr etiladi.

“Qo‘llar” she’rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, “g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar” ham “ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi deb ta’riflaydi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Ma’lumki, ta’lim maqsadlaridan biri milliy qadriyatlarning ilmiy merosidan foydalangan holda ta’lim tarbiya integrasiyasining shakllantirish masalasidir.Bunda asosiy e’tiborni shoirimizning hayotlarini o‘rganish va ularning vatanga bo‘lgan muhabbatlarini his qilishimiz,qolaversa,ularga o‘xshagan yoshlarni ilmiy ularga o‘rgatb borishimiz va yoshlarning ilmini,fikrlashishini va dunyoqarashini oshirishga qaratmoqchimiz.

Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiga bo‘lgan ta’limini yanada yod etish,uni manaviy boyligimiz tufayli kelajak yoshlarning qalbida yanada qoldirish va tarixiy an’analarga saqlangan holda milliy qadriyatimizni qamrab olgan xalq rivoyatlari,adabiyotlaridan foydalanish o‘quvchilarda ilmiy,axloqiy,mehr-sadoqat,ota-onaga va vatanga bo‘lgan muhabbbatini ,hurmat g‘oyalarini singdiriladi.

O‘quv jarayonida boy ilmiy-merosdan o‘quvchi yoshlarni xabordor qilish,talim va tarbiya uyg‘unligiga erishsishda muhim ahamiyatga egadir.Jumladan adabiyotlardan foydalanib adabiyotimizni ustahkamlash va yodimizda qoldirish hamda o‘quvchilarni fanga qiziqishini shakllantirish mumkin.

Avvalombor shoirimizni hayoti va ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak,shoirimiz Maqsud Shayxzodanig hayoti va ijodini har qaysi kitoblarda ko‘rishimiz mumkin.Bunda tashqari shorimizning hozirda internet sahifalaridan topishimiz mumkin,lekin asl manbalar internetdan biroz qiyinroq.Biz uni asl manbalardan ya’ni kitoblardan topishimiz mumkin.Mana shu asl kitoblarda Maqsud Shayxzodaning hayotini butkul o‘rganib chiqishimiz mumkin.Ya’niki internet sahifalarda faqatgina hayotining yillarini va asarlarini,sheriy kitoblarini ko‘rishimiz mumkin.Lekin qanday qilib shoirimiz Ozarbayjon yurtida bizning ona yurtimizga kelib qolgani aniq emas,biz buni kitobdan yani Naim Karimovning Shayxzodaga bo‘lgan asaridan bilishimiz mumkin.Mana shu kitobni o‘qir ekanman shoirimizning boshidan kechgan hamma qiyinchiliklarining hammasi yozilgan.Maqsud Shayxzoda ikki xalq dilbandi deb ataladi.

Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek,

G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh.Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov singari namoyandalariga bag‘ishlangan asarlar yezadi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shadi.

Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941-yilda Toshkentda nashr etilgan “Genial shoir” to‘plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgandir. Navoiy she’riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o‘rin egallab qoladi.

Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to‘la. Uning she’riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham ijodkorning shu tipdagi bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo‘r badiiy janrga ega bo‘lgan publitsistik maqolalari va nutqlari ushbu iste’dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir.

Iste’dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qiladi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” hamda “Romeo va Juletta” asarlari o‘zbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtiriladi.

Shoir mahoratining o‘sishiga, uning jahon adabiyotining klassik asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she’riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Maqsud Shayxzodani 50-yillar boshida mutlaqo asossiz ravishda qamoqqa oladilar va 25 yilga surgun qiladilar. Stalin vafot etgach, tuhmat bilan nohaq qamalganlarning ishi qayta ko‘rildi. Shu tariqa 1955-yili ko‘pgina fidoyi ziyolilarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 5 yillik qamoqxona azoblari natijasida shoirning sog‘ligi juda yomonlashib

qolgan edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha 10 yil davomida baland uyning eng yuqori qavatida yashashga majbur bo‘ldi. Ana shunday og‘ir sharoit va xastalikda ham hayotidan sira nolimay umrining oxirigacha ijod qilishdan to‘xtamadi.

Boshidan qanchadan-qancha musibatli kunlar o‘tgan bo‘lmasin, u hech zorlanmagan. Uning iymon-e’tiqodi, dunyoqarashi, yuqoridagi misralarda teran bayon qilingan. U hech qachon alamzadalik bilan yashamadi. Aksincha, unga xiyonat qilgan, uni azob uqubatlarga, jiddiy xastaliklarga duchor qilganlar haqida hech qayerda, hech narsa demagan. Shayxzoda o‘zining insoniy fazilatlariga sodiq qolib, doimo xayrixohlik va balandlik xislatlari bilan yuksalib yashadi. Chunki uning chinakam, sodiq do‘stlari ham oz emas edi. Bular Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Komil Yashin, Mirtemir, Shukur Burxon kabilar edi.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o‘ynadi. U Sh.Rustavelining „Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U.Shekspirning sonetlari, A.S.Pushkinning she’rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu.Lermontovning she’rlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Maqsud Shayxzoda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)da, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent Davlat pedagogika universiteti)da uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyoti tarixidan o‘qigan ma’ruzalari, maxsus kurslari o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha eng qimmatli darslar edi. Yozuvchi, adabiy dramaturg, tarjima ustasi, buyuk pedagog, tilshunos va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda nomidagi o‘quv zali va ekspozitsiya g‘oyat nozik did va mohiyatan uyg‘unlikda tashkil etilganini Shukur Burxonovdek ulkan san’at darg‘asiyu, Jaloliddin Manguberdidek buyuk tarixiy shaxslar siymolari ham aytib turibdi.

Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi.

Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga, madaniyati ravnaqiga qo‘shgan hissasi munosib e’zozlandi. Qator maktab va ko‘chalar uning nomi bilan mustaqil O‘zbekiston va uning hukumati tomonidan taqdirlangan. Maqsud Shayxzoda bundan tashqari 2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda
2. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
3. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
6. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b.